

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK: 336.1575.11*

**MIRDJAMALOV DALER SUXROB O‘G‘LI**

**MOLIYAVIY INSTITUTLAR VA ULAR FAOLIYATINING  
MAMLAKAT MOLIYA TIZIMIGA TA’SIRI**

**5A230601 - «Davlat moliyasi va xalqaro moliya»**

**mutaxassisligi bo‘yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTASIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.n., PhD. dots Shamansurova Z.A.**

**TOSHKENT-2023**

Magistrlik dissertasiya ishi "Moliya" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

10 - sonli bayonnoma " 25 " aprel 2023 y.


Kafedra mudiri: Xudoyqulov. X. X.



Ilmiy rahbar: Shamansurova. Z.A.



Magistrant: Mirdjamolov. D.S.



Dissertasiya Moliya va buxgalteriya xisobi fakultetida

2023 yil " 15 " may

№ MBF-01/3 raqami bilan ro'yxatga olinadi.

## ANNOTASIYA

Moliyaviy institutlar va ular faoliyatining mamlakat moliya tizimiga ta'siri bugungi kunda moliya va bank tizimidagi dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik.

Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, maxalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid maxalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz tijorat banklarining moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sohadagi faoliyati banklaridagi xususan "Aloqabank" ATB faoliyatida banklarining moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sohasi holati va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrika tahlil usullari yordamida o'rgandik.

Undan tashqari horijiy banklarni bu sahadagi tajribasi bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va taxlil qilingan ma'lumotlar asosida Moliyaviy institutlar va ular faoliyatining mamlakat moliya tizimiga ta'siri bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan hulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

***Kalit so'zlar:** Moliyaviy institutlar, tijorat banklari, muammoli kreditlar, kredit portfeli, kredit siyosati, xizmat ko'rsatish, investisiya portfeli, kredit riski.*



## SUMMARY

The impact of financial institutions and their activities on the country's financial system is one of the current topics in the financial and banking system today. Therefore, during the research, we carried out extensive work within the scope of the topic.

Among other things, we prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic. In order to increase the practical significance of the scientific work, the financial services of the commercial banks of our country in the banks, especially in the activity of "Aloqabank" ADB, the state of the financial services of the banks and the extent to which the work is carried out with them, based on statistical data, using econometric analysis methods. we learned

In addition, we got acquainted with the experience of foreign banks in this field. Based on the studied and analyzed data, we developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on the impact of financial institutions and their activities on the country's financial system.

**Key words:** *Financial institutions, commercial banks, problem loans, credit portfolio, credit policy, service, investment portfolio, credit risk.*

## MUNDARIJA

Annotasiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati.....	8
<b>I bob. KIRISH.....</b>	<b>9</b>
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalar.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti.....	14
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
<b>II bob. ADABIYOTLAR HARHI.....</b>	<b>16</b>
2.1. Kirish.....	16
2.2. Mavzuga oid ilmiy-amaliy qarashlar sharhi.....	16
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy xujjatlar sharhi.....	20
2.4. Xulosa.....	28
<b>III bob. METODOLOGIYA.....</b>	<b>29</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	29
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	29
3.3. Tahlil uchun qo'llanilgan usullar.....	30
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	31
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar.....	31
<b>IV bob. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>33</b>
4.1. Respublikamizda aksionerlik tijorat banklarining moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sohadagi faoliyati tahlili.....	33

4.2. "Aloqabank" ATBning aktivlari va kreditlarining amaldagi holati tahlili.....	47
4.3. Tahlillardan olingan natijalar .....	58
<b>V bob. XULOSA.....</b>	<b>60</b>
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	60
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	61
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqot uchun takliflar.....	63
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>65</b>



## I-BOB. KIRISH

Bank va moliya xizmatlari sifatini yanada oshirish, bu borada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ayni zamon talabi. Shu bois ham, zamonaviy-axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi bank va boshqa moliya institutlari mahsulotlarini va xizmatlarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlarini har jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida bugun keng ko'lamlı sa'y- harakatlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va amalga oshirilayotgan islohotlar dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan xizmatlar ko'rsatish va servis sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT)ni jadal rivojlantirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (Farmon, 2022) 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi pf-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da "Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyasiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish. Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash" belgilangan.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan (Farmon, 2017). Mazkur vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarish maqsadida O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni bilan 2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd. so'mgacha bosqichma-bosqich oshirish belgilangan (Farmon, 2020).

Ayni vaqtda respublikamiz tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida yechimini topish lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud. Xususan,